



КАЗАХСТАНСКИЙ НАЦИОНАЛЬНЫЙ  
ПЕДАГОГИЧЕСКИЙ ИНУНИВЕРСИТЕТ  
ИМЕНИ АБАЯ



**«TURKIY XALQLARNING MA'NAVIY  
INTEGRATSIYASI: TILI, ADABIYOTI,  
MADANIYATI»  
MAVZUSIDAGI II XALQARO  
ILMIY-NAZARIY KONFERENSIYA**

**TOSHKENT - 2025**

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY TA'LIM, FAN VA  
INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI**

**ALISHER NAVOIY NOMIDAGI TOSHKENT DAVLAT  
O'ZBEK TILI VA ADABIYOTI UNIVERSITETI**

**«TURKIY XALQLARNING MA'NAVIY  
INTEGRATSIYASI: TILI, ADABIYOTI,  
MADANIYATI»**

**MAVZUSIDAGI II XALQARO ILMIY-NAZARIY  
KONFERENSIYA MATERIALLARI**

**TOSHKENT - 2025**



Mazkur ilmiy maqolalar to'plamida «Turkiy xalqlarning ma'naviy integratsiyasi: tili, adabiyoti, madaniyati» II Xalqaro ilmiy-amaliy konferensiyasi materiallari jamlangan. Maqolalarda turkiy tillarning rivoji va o'zaro o'xshashliklarini, umumiy adabiy merosimizni ilmiy asosda chuqur o'rghanish; madaniy aloqalarni zamonaviy texnologiyalar orqali kengaytirish; tarjima va adabiy almashinuv orqali xalqaro miqyosda muloqotni kuchaytirish; raqamli platformalar orqali integratsiyani amalga oshirishga oid fikrlar yoritib berilgan. To'plamdan dunyo bo'yicha taniqli turkiyshunos olimlar, metodistlar, o'qituvchilar hamda ToshDO'TAU iqtidorli talabalarining maqolalari ham o'rin olgan.

To'plam til va adabiyot ta'limi bilan shug'ullanuvchi professor-o'qituvchilar, shu sohaning tadqiqotchilari, magistrant va talabalarga mo'ljallangan.

**Taqrizchilar:**

**G.Asilova** – *pedagogika fanlari doktori (DSc), professor.*

**G.Norimova** – *filologiya fanlari nomzodi, dotsent.*

**Tahrir hay'ati:**

S.Muhamedova, S.Qambarova, O.Turaqulova,

Y.Shirinova, M.Yo'ldosheva.

*Mazkur to'plam matni Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti Kengashining 2025-yil 2-iyundagi 10-sonli majlisida muhokama qilinib, nashrga tavsiya qilingan.*

*Izoh: Maqolalarning ilmiy saviyasi uchun mualliflar o'zlari mas'uldirlar.*



## 5–6-SINF ADABIYOT DARSLARIDA O'QUVCHILARNING IJODIY QOBILIYATINI RIVOJLANTIRISH

**Beknazarova Farida Matraxim qizi**

*Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti  
4-bosqich talabasi*

### **Annotations**

Ushbu maqolada 5–6-sinf o'quvchilari bilan olib boriladigan adabiy ta'limganing ijodiy salohiyatni yuzaga chiqarishdagi o'rni, samarali pedagogik metodlar, interfaol yondashuvlar va amaliy mashg'ulotlar asosida tahlil qilingan. Shuningdek, maqolada o'quvchilarning kognitiv va emotsiyal rivojlanishini uyg'un holda qo'llab-quvvatlovchi metodik vositalar, kreativ fikrlashni rag'batlantiruvchi topshiriq va texnologiyalar tavsiflangan. O'tkazilgan tajribalar asosida berilgan tavsiyalar o'quvchilar bilan adabiyot darslarini ijodiy asosda tashkil qilishda muhim ahamiyatga ega.

**Kalit so'zlar:** *adabiyot darsi, ijodiy qobiliyat, innovatsion metod, muammoli ta'lim, dramatizatsiya, refleksiya, vizual materiallar.*

### **Аннотация**

В данной статье рассматривается роль литературного образования в 5–6 классах в раскрытии творческого потенциала учащихся. Подробно анализируются эффективные педагогические методы, интерактивные подходы и практические задания. Особое внимание уделяется методическим средствам, поддерживающим когнитивное и эмоциональное развитие школьников, а также заданиям и технологиям, стимулирующим креативное мышление. На основе проведённых экспериментов даны рекомендации по организации творчески ориентированных уроков литературы.

**Ключевые слова:** *урок литературы, творческие способности, инновационные методы, проблемное обучение, драматизация, рефлексия, визуальные материалы*

### **Abstrakt**

This article explores the role of literature education in grades 5–6 in fostering students' creative potential. It analyzes effective pedagogical methods, interactive approaches, and practical exercises. The paper also describes methodological tools that support the cognitive and emotional development of learners, as well as tasks and technologies aimed at stimulating creative thinking. Based on conducted experiments, practical recommendations are offered for organizing literature lessons with a creative focus.

**Keywords:** *literature lesson, creative abilities, innovative methods, problem-based learning, dramatization, reflection, visual materials.*

Bugungi globallashuv davrida ta'lim tizimida o'quvchilarning ijodiy fikrlashini rivojlantirishga alohida e'tibor qaratilmoqda. Xususan, adabiyot ta'limida ijodiy faoliyatni shakllantirish, o'quvchilarning individual qobiliyatlarini ro'yobga chiqarish muhim vazifa hisoblanadi. Dunyo miqyosida boshlang'ich ta'lim jarayoniga kreativ yondashuvlar, lingvodidaktik tamoyillar, kontrastiv lingvistika asosida ta'lim mazmunini boyitish bo'yicha turli amaliy tajribalar joriy qilinmoqda. Xalqaro tashkilotlar, jumladan, YUNESKO tomonidan ishlab chiqilgan 2030-yilgacha mo'ljalangan ta'lim strategiyasida sifatli ta'lim – bu nafaqat savodxonlik va hisob-kitob malakalari, balki tahlil qilish, muammolarni hal etish, muloqot qilish va ijodiy fikrlash kabi ko'nikmalarni shakllantirish vositasi sifatida talqin etilmoqda [1].



Mamlakatimizda ta'lrim tizimini tubdan takomillashtirish bo'yicha olib borilayotgan islohotlar natijasida boshlang'ich sinflarda o'quvchilarining bilim olish ehtiyoji, ijodiy fikrlash salohiyatini oshirish, ularni milliy va umumbashariy qadriyatlarga sodiq, faol, mustaqil fikrlaydigan shaxs sifatida tarbiyalashga alohida e'tibor qaratilmoqda. Xususan, "O'zbekiston Respublikasi xalq ta'limi tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiysi"da ta'lim jarayonini individuallashtirish, o'quvchilarning yosh xususiyatlarini inobatga olgan holda ijodiy faoliyatga yo'naltirish tamoyillari ilgari surilgan [2].

O'zbekistonlik va xorijiy olimlarning fikriga ko'ra, har bir insonda o'ziga xos qobiliyatlar mavjud bo'lib, ular ma'lum faoliyatni muvaffaqiyatli bajarishda muhim ahamiyatga ega. Shu boradagi tadqiqotlar E.G'oziyev, M.G.Davlatshin, B.R.Kadirov, V.A. Krutetskiy, S.L.Rubinshteyn kabi mutaxassislar tomonidan chuqur o'r ganilgan. S.L. Rubinshteynning ta'rificha, qobiliyat - bu shaxsning biror ijtimoiy ahamiyatga ega faoliyatni samarali ado etishini ta'minlaydigan individual sifatlar to'plamidir. Unga ko'ra, qobiliyatlar insonning bilim, malaka va tajriba bilan birgalikda shakllanib boruvchi shaxsiy jihatlaridir. Rubinshteyn shuni ta'kidlaydiki, insonning rivojlanishi - bu faqat bilim orttirish emas, balki aynan qobiliyatlarni rivojlantirish jarayonidir. Ijodiy qobiliyatlar masalasi psixologiya fanida eng dolzarb va qiziqarli yo'nalishlardan biri hisoblanadi. Bu yo'nalishda qadim zamonlardan to hozirgi kungacha ko'plab olimlar ilmiy izlanishlar olib borgan. Sharq mutafakkirlari Forobiy, Beruniy va Ibn Sino, G'arb olimlari A. Bine, F. Galton, T. Simon, U. Ollport, K. Rodjers, shuningdek, rus psixologlari B.M.Teplov, S.L. Rubinshteyn, V.N. Myasishev ijodiy salohiyat tabiatini chuqur tahlil qilganlar. O'zbek olimlari orasida E. G'oziyev, R. Gaynutdinov, B. Kodirov va boshqalar ijodiy tafakkur masalasini chuqur o'r ganib chiqishgan.

Ijodkorlik deganda insonning yangicha fikrlashi, noodatiy yondashuvlar asosida yangilik yaratishi tushuniladi. Bu jarayon erkin fikr yuritish, muammolarga o'ziga xos yondashish, har xil yo'llar bilan yechim topa olish kabi jihatlarni o'z ichiga oladi. Bu xususida, Q. Husanboyaning ushbu fikrlarini keltirib o'tish joiz: "Kashfiyotning lazzati qanchalar totli ekanini har bir odam biladi. Mana shu lazzatni vaqtliroq tuyish imkonini o'quvchilarga ham berish kerak. Kashf etish lazzati o'quvchini asar mohiyatiga chuqurroq kirishga, yangi-yangi topilmalar qilishga undaydi. Odam o'ziga huzur bergen ishni yana va yana qilgisi, uni chuqurlashtirishi, o'sha huzurni qayta tuygisi keladi. Adabiyot darslarining insonga xos bo'lgan mana shunday tabiiy sifatlar bilan hamohang kechishi o'quvchi shaxsiyatida fikr kishisini tarbiyalaydi" [3: 67-b.]. Sh. Boltayevanig fikricha, insonning ijodiy faoliyati va intuitiv fikrlash jarayoni bir-biri bilan chambarchas bog'liq. Ijodiy faoliyatning barcha ko'rinishlari, shuningdek, muammolarni hal qilish va yangi g'oyalarni amalga oshirishda intuitsianing o'rni katta. Bunda, odamning mehnatidan qoniqishi, yangi yondoshuvlar yaratishga intilishi va muammolarga amaliy yechimlar topishga qaratilgan harakatlari ijodiy faoliyatning assosiy komponentlaridan sanaladi. Shuningdek, o'rgangan bilimlar va ko'nikmalarni yangi vaziyatlarga



moslashtirish, muammoning aniq bo'lmanan tomonlarini o'rganish va o'ziga xos yechimlarni topish ham ijodiy jarayonning ajralmas qismidir [4: 10-b.].

"Ijod" tushunchasi ko'pincha yangi, noyob, original fikr yoki mahsulot yaratish bilan bog'liq bo'lib, bu inson tafakkurining yuqori bosqichini aks ettiradi. Psixologik adabiyotlarda "ijodiy qobiliyat" tushunchasiga turlicha yondashuvlar mavjud. Masalan, B.M. Teplov bu tushunchani inson faoliyatida yuqori natijalarga erishishni ta'minlovchi individuallikka xos xususiyat deb ta'riflaydi. S.L. Rubinshteyn esa ijodiy qobiliyatni faoliyat jarayonida shakllanuvchi shaxsiy sifat deb hisoblaydi. Bu yondashuvlarga ko'ra, ijodiylik insonning tug'ma xususiyati bo'lishi mumkin bo'lsa-da, uni rivojlantirish mumkin va zarur.

Ijodiy fikrlash esa bir muammoga turli rakursdan yondashish, noan'anaviy fikrlar bildirish va original qarorlar topishni anglatadi. Ijodiy jarayon fikrlash bilan ajralmas tarzda bog'liqdir. Fikrlash va ijod jarayonlari o'rtasidagi o'zaro ta'sir rang-barang va takrorlanmas bo'lib, ularning o'ziga xos xususiyatlarini aniq tasvirlash juda murakkabdir. Adabiyot fani o'z tabiatiga ko'ra o'quvchilarda badiiy-estetik didni shakllantirish, ularning ruhiy olamini boyitish, dunyoqarashini kengaytirish bilan birga, ijodiy fikrlashga keng imkoniyat yaratadi. Asar tahlili, obrazlar ustida fikr yuritish, muallif g'oyasini anglash va baholash jarayoni o'quvchidan faollikni, mustaqillikni va ijodiy yondashuvni talab qiladi.

Adabiyot darslarida ijodiy qobiliyatlarni rivojlantirish quyidagi yo'llar orqali amalga oshiriladi:

- badiiy asarlar asosida muammoli savollarni tahlil qilish, ularga turli nuqtai nazardan yondashish;
- obrazlar tahlili orqali o'quvchilarning tasavvurini kengaytirish;
- muallif g'oyasini izlab topishga yo'naltirilgan savollar berish;
- she'r yoki hikoya yozishga undovchi ijodiy topshiriqlar berish;
- dramatik sahnalarni sahnalashtirish orqali matnga o'ziga xos yondashuvni rivojlantirish.

Bu usullar o'quvchilarning o'z fikrini erkin ifoda etishiga, adabiy materialni chuqur anglashiga va shaxsiy ijodiy qarashlarini shakllantirishga yordam beradi. Ayniqsa, o'quvchilarni darsda faol ishtiroy etishga undovchi interfaol metodlar – roliklar tayyorlash, dramatizatsiya, fikrlar bahsi – ularning ijodiy salohiyatini yuzaga chiqarishda samarali hisoblanadi.

O'quvchilarning kognitiv va emotsional salohiyatini birgalikda rivojlantirish uchun pedagoglar o'z faoliyatida quyidagi metodik yondashuvlarni qo'llashlari zarur:

➤ Muammoli ta'lim metodi – o'quvchini mustaqil izlanishga, savollar berishga, muammoni yechishga undaydi. Bu metod kognitiv tafakkurni faollashtiradi, ayni vaqtda o'z fikrini asoslab berishga undaydi, bu esa o'z-o'zini anglashni kuchaytiradi [5].



➤ Rolga kirish (dramatizatsiya) – o'quvchilarni ijtimoiy vaziyatlarda turli rollarda sinab ko'rish imkonini beradi. Bu emotsiyal jihatdan empatiyani, o'zini boshqalarning o'rniga qo'yib ko'rish qobiliyatini rivojlantiradi.

➤ Interfaol metodlar (klaster, akvarium, debat) – o'quvchilar o'z fikrini bildirishga, eshitishga, tahlil qilishga o'rganadilar. Bu metodlar muloqot va emotsiyal savodxonlikni shakllantiradi.

➤ Refleksiya texnikalari – dars yakunida o'quvchi o'zining bugungi holatini, kayfiyatini, o'zlashtirgan bilimini baholaydi. Bu usul emotsiyal anglashuvni kuchaytiradi, shaxsiy rivojlanishga zamin yaratadi [6].

Innovatsion pedagogik texnologiyalar va interfaol metodlarning ta'lif jarayonidagi o'rni beqiyosdir. Ular o'quvchilarning faolligini oshiradi, bilim olish jarayonini yanada qiziqarli va samarali qiladi, shuningdek, o'quvchilarning ijodiy salohiyatini rivojlantiradi. Shu sababli, zamonaviy ta'lif tizimida ushbu metodlar va texnologiyalarni yanada kengroq qo'llash zarurati mavjud. Innovatsion metodlarga quyidagilarni misol qilishimiz mumkin:

*"Aqliy hujum"* metodi – bu o'quvchilarning fikrlash qobiliyatini faollashtirish, ulardagi erkin fikrlash jarayonini rag'batlantirishga qaratilgan metoddir. Bu metod, ayniqsa, badiiy asarlarni tahlil qilish, obrazlarni baholash yoki muallif g'oyasini tushunish jarayonida juda samarali hisoblanadi.

*"Klasterni yaratish"* metodi bu o'quvchilarning fikrini guruhlab, ularni mantiqiy bog'liqlik asosida joylashtirish imkonini beradi. Ushbu metod, ayniqsa, she'r tahlilida, leksik va semantik tahlilda, muammoli savollarga javob izlashda foydalidir.

*"Rol o'ynash"* usuli o'quvchilarni asar ichiga chuqurroq kirib borishlariga, obrazlarni o'zlashtirishlariga xizmat qiladi. Ushbu metod dramalarni, hikoya yoki romanlardan olingan sahnalarni jonlantirishda muhim ahamiyatga ega.

*Vizual materiallar* – rasmlar, diagrammalar, videolar, slaydlar, xaritalar kabi ko'rgazmali vositalar – o'quvchilarning tasavvurini boyitadi va badiiy matnni chuqurroq anglashga yordam beradi. Bu borada Boqijon To'xliyev "Ko'rish va eshitish bilan bog'liq bo'lgan ko'rgazmalilik o'quvchidagi ijodiy tasavvurni faollashtirish bilan omuxtalashib sinfdagi adabiy asar tahliliga jiddiy ijobiy ta'sir ko'rsata oladi" – deb ta'kidlaydi [7: 140-b.]. Ayniqsa, she'r yoki nasriy asar tahlilida tasviri san'at asarlarini qo'shish orqali o'quvchilar o'zida mavjud bo'lgan obrazni yanada jonlantiradilar.

Quyida o'quvchilarning ijodiy qobiliyatini rivojlantirish uchun berilgan bir nechta topshiriq va zamonaviy metodlardan na'munalar keltiramiz:

1. *She'riy parchalarni nasrga aylantirish*. Ushbu metod 5-sinf o'quvchilari bilan birgalikda olib boriladi. O'quvchilar Erkin Vohidovning "Matmusaning tandiri" she'rini nasrga aylantirishadi. Ushbu metod 3 bosqichda olib boriladi:

- ✓ tushuntirish bosqich;
- ✓ tayyorlov bosqichi;
- ✓ nasrga aylantirish bosqichi.

*Tushuntirish bosqichi* – ushbu bosqichda metod haqida tushunchalar beriladi. She'r mazmuni va badiiy vositalari tahlil qilinadi.




*Tayyorlov bosqichi* – she'r soddalashtirilib, undagi asosiy g'oyalar ajratib olinadi.

*Nasrga aylantirish bosqichi* – o'quvchilar she'r mazmunidan chetlashmagan holatda, o'z so'zlari bilan uni nasrga aylantirishadi.

O'quvchilarning ishlari yig'ib olinadi. Xato va kamchiliklari aniqlanadi.

Bu metod o'quvchilarni yaratuvchanlikka undashi va so'z qo'llash mahoratini oshirishi bilan ajralib turadi. Ushbu metod barcha sinf o'quvchilarning ijodiy qobiliyatini rivojlantirishda samarali hisoblanadi.

**2. Rasm asosida hikoya yaratish.** O'quvchilarga "Sehrli eshik" mavzusida hikoya yaratish topshirig'i beriladi. Ularga hikoya uchun suratlar taqdim etiladi. Ushbu suratlar asosida o'quvchilar ertak yaratishadi.



Hikoya quyidagi mezonlar asosida baholanadi:

- *hikoyaning mazmuni va ijodkorligi;*
- *hikoyaning tuzilishi;*
- *qahramonlar va ularning tasviri;*
- *til va uslub;*
- *grammatika va imlo;*
- *rasm bilan bog'liqlik va tafsilotlarni ishlatish .*

**3. Aqliy hujum metodi.** Ushbu metod Artur Konan Doylning "Mallalar uyushmasi" hikoyasi asosida tashkil etiladi. Hikoya o'quvchilar tomonidan o'qib tugatilganidan so'ng, ularga quyidagi savollar beriladi:



- Agar Jeybz Uilsonning kotibi "malla emas, balki soqolli" odam bo'lsa, syujet qanday o'zgarardi?
  - Hozirgi kunda Xolmsning "so'nggi ish"ga oid dalillarni to'plash usullari qanday texnologiyalar bilan almashtirilishi mumkin?
  - Hikoyadagi "qo'ng'iroq arqoni" va "ventilyator" kabi dalillar bo'lmasa, Xolms qanday usullar bilan jinoyatni fosh qilardi?
  - Agar siz Sherlok Xolms bo'lsangiz, qanday dalillarni birinchi bo'lib qidirgan bo'lardingiz?
  - Sherlok Xolms nima uchun har :m diqqat bilan eshitishga ahamiyat beradi?
  - Hikoya sizga yoqdimi? Nega?

Xulosa qilib aytganda, adabiyot darslarida qo'llaniladigan ijodiy metodlar – bu o'quvchilarning shaxsiy intellektual rivojiga yo'naltirilgan, ularni fikrlashga, tahlil qilishga, muhokama yuritishga va eng asosiysi, ijod qilishga undovchi vositalardir. Har bir metod o'ziga xos bo'lib, ularni mos ravishda qo'llash, bir-biriga uyg'unlashtirish o'qituvchining bilimdonligi va pedagogik mahoratini namoyon qiladi. Natijada, bunday darslar orqali o'quvchi shunchaki adabiy bilim emas, balki hayotga nisbatan o'zining shaxsiy qarashini shakllantiradi, bu esa uni chinakam ijodiy shaxs sifatida voyaga yetkazadi.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. Incheon Declaration/education 2030: Towards inclusive and equitable quality education and lifelong learning for all (Word Education Forum, 19-22 may 2015, Incheon, Republic of Korea).
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 29-apreldagi "O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi PF-5712-som Farmoni. – Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 06/19/5712/3034-som, 29.04.2019-y.
3. Ҳусанбоева Қ. П. Адабий таълим жараёнида ўқувчиларни мустақил фикrlашга ўргатишининг илмий методик асослари: Пед. фан. док. ... дисс. – Тошкент, 2006. – 67-б.
4. Болтаева Ш. Бошланғич таълимда ўқувчилар ижодий фаoliyatini rivojlanтиришнинг ташкилий педагогик асосларини takomillashaстириш: Пед. фан. фалс. док. (PhD) ... дисс. автореф. – Самарқанд, 2019. – 10 б.
5. Jo'rayev M. Muammoli ta'lim va uning samarasi. Andijon davlat universiteti jurnali, 2020.
6. Karimova N. Refleksiya texnikalari: nazariya va amaliyot. Innovatsion pedagogika, 2022.
7. To'xliyev B. Adabiyot o'qitish metodikasi – Toshkent, Yangi asr avlod, 2010. – 151 b.



<b>NUTQINI BAHOLASH PEDAGOGIK-METODIK MUAMMO SIFATIDA</b>	
Ermatova Durdona Zafarjon qizi. <i>INDUCTIVE AND DEDUCTIVE METHODS IN TEACHING UZBEK AS A FOREIGN LANGUAGE: A COMPARATIVE PEDAGOGICAL ANALYSIS</i>	797
Raxmatullayeva Ruxshona Sherzod Qizi. <i>O'ZBEK MILLIY TAOMLARI NOMLARINING SHEVALARDAGI UMUMIY VA FARQLI JIHATLARI</i>	800
Xudayberdiyeva Orifaxon Rustamjon qizi. <i>O'ZBEK TILSHUNOSLIGIDA LEKSIKA TUSHUNCHASI</i>	803
<b>VII SHU'BA. TURKIY XALQLAR ADABIYOTINI O'QITISHDA ZAMONAVIY YONDASHUVLAR</b>	
P.Hiёзметова. <i>БАДИЙ АСАРДА ТАБИАТ ТАСВИРИ ВА ҚАҲРАМОНЛАР ТУЙҒУЛАРИ ИФОДАЛАНИШИНИ ЎРГАНИШ</i>	809
P.Hiёзметова. <i>O'ZBEK ADABIY TA'LIMIDA XORIJY METODLARDAN FOYDALANISH METODIKASI</i>	813
Исманова Акибатхан Алимжановна. <i>АБДУЛЛА ҚОДИРИЙНИНГ "ҮТКАН КУНЛАР" ВА ТЎЛАГАН ҚОСИМБЭКОВНИНГ "СИНГАН ҚИЛИЧ" АСАРЛАРИДА ХОНЛИКЛАР ДАВРИНИНГ БАДИЙ ТАЛҚИНИ</i>	820
Turakulova Okila Amirkulovna. <i>TA'LIM JARAYONIDA YOSHLARIMIZNING MILLIY O'ZLIGINI ANGLASHIDA BADIY ASARLARNING TUTGAN O'RNI</i>	825
To'ychiyeva Mahfuza Umakulovna. <i>TA'LIM TIZIMIDA MANTIQIY FIKRLASHDAN FOYDALINISH MASALASI: O'TMISH VA BUGUN</i>	830
Oymatova Nilufar Mirjamolovna. <i>JADID ADABIYOTINI O'QITISHDA ZAMONAVIY PEDAGOGIK TEXNOLOGIYALAR DAN FOYDALANISH: MAHMUDXO'JA BEHBUDIY IJODINI O'RGANISH TAJRIBASI</i>	839
Musurmonkulova Oysuluv Yulbekovna. <i>ADABIY ASARNING BADIY MAZMUNINI ANGLASH YO'LLARI</i>	844
Elboyeva Mahliyo Polvonquli qizi. <i>MAKTAB TA'LIMIDA RAQAMLI TEXNOLOGIYALAR DAN FOYDALANISH</i>	852
Abdixoliqova Mastona Raxim qizi. <i>XALQ OG'ZAKI IJODI NAMUNALARINI O'QITISHNING INNOVATSION VA PSIXOPEDAGOGIK ASOSLARI</i>	857
Abduraxmanova Ilmira Alimjonovna. <i>O'QITUVCHINING "SEHRLI TAYOQCHASI": FAOLLIKNI OSHIRUVCHI METODLAR T AHLILI</i>	862
Abdusattorova Dilshodabegim. <i>ERTAKLARNI O'QITISHDA MULTIMEDIA ILOVALARINING O'RNI</i>	865
Adashaliyeva Nigora Shuhratjonovna. <i>ADABIY TA'LIMDA INNOVATSION TEXNOLOGIYALAR VOSITASIDA O'QUVCHILARNING BADIY-ESTETIK TAFAKKURINI RIVOJLANTIRISH</i>	870
Beknazarova Farida Matraxim qizi. <i>5-6-SINF ADABIYOT DARSLARIDA O'QUVCHILARNING IJODIY QOBILIYATINI RIVOJLANTIRISH</i>	875

